SAYOHATNOMALARNING TARIXIY AHAMIYATI

Nurmamatova Marjona Hasan qizi
O'zbekiston Milliy universiteti
Tarixshunoslik manbashunoslik va tarixiy
tadqiqot usullari yo'nalishi 1- kurs magistranti
mnurmamatova278@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20008818

Anotatsiya: Ushbu maqolada sayohatnomalarning tarixiy manba sifatidagi o'rni, ularning kelib chiqish sabablari va Yevropalik sayyohlarning O'rta Osiyo haqida qoldirgan yozuvlari tahlil qilinadi. Sayohatnomalar savdo, diplomatik aloqalar, missionerlik va ilmiy qiziqishlar asosida shakllangan bo'lib, ular mintaqa tarixi, etnografiyasi, siyosiy tuzumi va madaniy hayotini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Plano Karpini, Ruruk, Marko Polo, Klavixo, Jenkinson, Vamberi kabi yevropalik sayyohlar asarlarida O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy va moddiy hayotiga oid noyob ma'lumotlar saqlanib qolgan. Maqolada ushbu manbalarning tarixiy tahlili, ularning ilmiy ahamiyati va tarixshunoslikdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sayohatnoma, tarixiy manba, Yevropalik sayyohlar, O'rta Osiyo, diplomatik aloqalar, etnografiya, Marko Polo, Plano Karpini

Annotation: This article analyzes the role of travelogues as a historical source, the reasons for their origin, and the records left by European travelers about Central Asia. Travelogues were formed on the basis of trade, diplomatic relations, missionary and scientific interests, and they play an important role in illuminating the history, ethnography, political system and cultural life of the region. In particular, the works of European travelers such as Plano Carpini, Ruruk, Marco Polo, Clavijo, Jenkinson, Vamberi have preserved unique information about the social and material life of the peoples of Central Asia. The article reveals the historical analysis of these sources, their scientific significance and place in historiography.

Key words: travelogue, historical source, European travelers, Central Asia, diplomatic relations, ethnography, Marco Polo, Plano Carpini

Аннотация: В данной статье анализируется роль путевых заметок как исторического источника, причины их возникновения и записи, оставленные европейскими путешественниками о Центральной Азии. Путевые заметки формировались на основе торговых, дипломатических, миссионерских и научных интересов и играют важную роль в освещении истории, этнографии, политической системы и культурной жизни региона. В частности, работы европейских путешественников, таких как Плано Карпини, Рурук, Марко Поло, Клавихо, Дженкинсон, Вамбери, сохранили уникальную информацию о социальной и материальной жизни народов Центральной Азии. В статье представлен исторический анализ этих источников, их научное значение и место в историографии.

Ключевые слова: путевые заметки, исторический источник, европейские путешественники, Центральная Азия, дипломатические отношения, этнография, Марко Поло, Плано Карпини

Kirish. Jahon tarixshunosligida sayohatnomalar o'ziga xos va qimmatli tarixiy manbalar guruhini tashkil etadi. Ular nafaqat geografik kashfiyotlar tarixi, balki turli xalqlarning ijtimoiy-

siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, O‘rta Osiyo mintaqasiga tashrif buyurgan Yevropa sayyohlari, elchilari va missionerlarining yozuvlari mahalliy xalqlar tarixi, davlatchilik an’analari, urf-odatlari va turmush tarzi haqida ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda tarixiy merosni o‘rganish, ilmiy manbalarni qayta tahlil qilish va ularni keng jamoatchilikka yetkazish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni va 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmonlarida xalqimizning boy tarixi, moddiy va madaniy merosini ilmiy o‘rganish muhim vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, Yevropa sayohatnomalarining O‘rta Osiyo tarixi va madaniyatini yoritishdagi o‘rni alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O’qituvchilar uchun metodik resurs – dars mavzularini boyitish , interaktiv topshiriqlar yaratish imkonini beradi.Pedagogik nuqtai nazardan, virtual mzeylar o’quvchilarning madaniy merosga bo’lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va zamonaviy ta’lim metodlariga mos keladi. Ayniqsa tarix, san’atbbiologiya va texnologiya fanlarida virtual muzeylardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada asosan ikki yo‘nalishga e’tibor qaratiladi: birinchidan, sayohatnomalarning qanday sharoitlarda va qaysi sabablarga ko‘ra paydo bo‘lganligi; ikkinchidan, Yevropalik sayyohlarning O‘rta Osiyo haqidagi yozuvlari va ularning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

1. Sayohatnomalarning kelib chiqishi: omillar va sharoitlar

Sayohatnomalar (lot. travellus – sayohat qilmoq) muayyan hududga tashrif buyurgan shaxs – elchi, savdogar, missioner yoki olim tomonidan o‘z kuzatuvlari asosida yozib qoldirilgan yozma hujjatlardir. Ularning paydo bo‘lishiga bir qancha omillar sabab bo‘lgan.

Birinchidan, savdo aloqalari kengayishi natijasida turli xalqlar o‘rtasida tovar ayirboshlash va yangi bozorlarni o‘rganish ehtiyoji paydo bo‘lgan. Xususan, Buyuk Ipak yo‘li orqali olib borilgan savdo-sotiq ishlari ko‘plab sayyohlarni O‘rta Osiyoga olib kelgan. Savdogarlar nafaqat tovar, balki mahalliy xalqlarning urf-odatlari, diniy e’tiqodlari va boshqaruv tizimi haqida ham ma’lumot to‘plashgan.

Ikkinchidan, diplomatik va elchilik aloqalari sayohatnomalarning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Turli davlatlar o‘rtasida elchilar almashinuvi mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlagan. Masalan, Vizantiya imperiyasining Turk hoqonligiga jo‘natgan elchilari – Zemarx, Andrey va boshqalar o‘z hisobotlarida O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy tuzumi, harbiy salohiyati va diplomatik urf-odatlari haqida batafsil yozib qoldirgan. Tarixchi Menandr (VI asr), Feofan (VII asr) va Feofilakt Simokatta (VII asr) kabi mualliflarning asarlari aynan shunday elchilik ma’lumotlariga tayangan holda yaratilgan.

Uchinchidan, missionerlik faoliyati ham sayohatnomalarning vujudga kelishiga turtki bo‘lgan. Xususan, mo‘g‘ullar istilosi davrida Rim papasi va Yevropa qirollari tomonidan Qorakorumga yuborilgan xristian missionerlari o‘z sayohatlarini batafsil qayd etganlar. Ulardan eng mashhurlari Plano Karpini (1245-1247) va Vilgelm Rubruk (1253-1255)dir. Ular mo‘g‘ullarning turmush tarzi, diniy qarashlari, harbiy tuzilishi va boshqa xalqlar bilan munosabatlari haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan.

To‘rtinchidan, ilmiy va geografik qiziqishlar sayyohlarni yangi hududlarni o‘rganishga undagan. Xususan, arab geografi Muhammad al-Idrisiy 1154-yilda yaratgan “Tabula Rogeriana” asari o‘z davrining eng aniq dunyo xaritalaridan biri hisoblanib, unda Yevroosiyo qit’asining to‘liq ko‘rinishi aks ettirilgan. Bu kabi ilmiy asarlar keyingi geografik kashfiyotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Shunday qilib, sayohatnomalarning kelib chiqishi iqtisodiy, siyosiy, diniy

va ilmiy omillarning murakkab majmuasi bilan bog‘liq bo‘lib, ular o‘z davrining jonli guvohi sifatida tarixiy haqiqatni aks ettirishda muhim rol o‘ynagan.

2. Yevropalik sayyohlar va ularning O‘rta Osiyo haqidagi yozuvlari

O‘rta asrlarda va undan keyingi davrlarda O‘rta Osiyoga tashrif buyurgan yevropalik sayyohlar, elchilar va tadqiqotchilar mintaqa tarixi va madaniyatini yoritishda bebaho xizmat qilgan. Ularning asarlari Sharq tilidagi manbalarda uchramaydigan ko‘plab ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Plano Karpini va Vilgelm Rubruk XIII asrda mo‘g‘ullar istilosi Yevropani tashvishga solgan davrda Rim papasi Innokentiy IV Plano Karpinini mo‘g‘ullar xoni huzuriga elchi qilib yuborgan. Karpini 1245-1247 yillarda Qorakumga sayohat qilib, mo‘g‘ullarning harbiy tuzilishi, urf-odatlari va boshqa xalqlar bilan munosabatlari haqida batafsil hisobot tayyorlagan. Uning “Mo‘g‘ullar tarixi” asari O‘rta Osiyo xalqlari etnografiyasini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

1253-1255 yillarda fransuz qiroli Lyudovik IX tomonidan yuborilgan flamand ruhoniysi Vilgelm Rubruk ham mo‘g‘ullar yurtiga sayohat qilgan. Rubruk o‘z asarida Qoraqum sahrosi, Samarqand, Buxoro kabi shaharlar, mahalliy aholining turmush tarzi, dinlari va tillari haqida qimmatli kuzatuvlar qoldirgan. U, shuningdek, turkiy qabilalarning urf-odatlari va ularning mo‘g‘ullar bilan munosabatlarini ham batafsil tasvirlagan.

Marko Polo

Venetsiyalik savdogar Marko Polo (1254-1324) otasi va amakisi bilan birga 1271-1295 yillarda O‘rta Osiyo orqali Xitoyga sayohat qilgan. Uning “Dunyo mo‘jizalari kitobi” (“Il Milione”) Yevropaliklarni Markaziy Osiyo va Xitoy bilan tanishtirishda katta rol o‘ynagan. Marko Polo o‘z asarida Samarqand, Buxoro, Xo‘tand, Qashg‘ar va boshqa shaharlarning iqtisodiy va madaniy hayotini, ipak yo‘lidagi savdo tarmoqlarini, mahalliy hukmdorlarning siyosatini batafsil tasvirlagan. Uning kitobi keyingi asrlarda Xristofor Kolumb va boshqa geografik kashfiyotchilarga ilhom manbai bo‘lgan.

Ruy Gonsales de Klavixo

1403-1406 yillarda ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixo Amir Temur saroyiga sayohat qilib, o‘z kundaligida Samarqandning obodonchiligi, Temuriy davlatining boshqaruv tizimi, savdo-sotiq aloqalari va qurilish ishlari haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Klavixoning asari XIV asr oxiri – XV asr boshlaridagi Movarounnahr tarixini yoritishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Antonio Jenkinson va ingliz sayyohlari

XVI asrda ingliz savdogari Antonio Jenkinson Moskva kompaniyasi topshirig‘i bilan Buxoro va Xivaga sayohat qilgan (1558-1560). U o‘z hisobotida O‘rta Osiyo xonliklarining iqtisodiy ahvoli, savdo yo‘llari, mahalliy hukmdorlarning o‘zaro munosabatlari va Rossiya bilan aloqalari haqida batafsil ma’lumot bergan. Jenkinsonning asarlari ingliz-rus-o‘zbek munosabatlari tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Arminiy Vamberi

XIX asrda yashagan vengriyalik olim Arminiy Vamberi (1832-1913) o‘zbek, turkman, fors va arab tillarini mukammal bilgan holda O‘rta Osiyoga sayohat qilgan. U 1863-1864 yillarda dervish qiyofasida Buxoro, Xiva, Samarqand va Farg‘onaga tashrif buyurgan. Vamberining “O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat” asarida mintaqa xalqlarining ijtimoiy hayoti, urf-odatlari, diniy e’tiqodlari va siyosiy tuzumi haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Uning ilmiy merosi O‘rta Osiyo etnografiyasi va tarixshunosligiga qo‘shilgan muhim hissadir.

Daniyalik tadqiqotchilar (Ole Olufsen va Ester Fihl)

1890-yillarda daniyalik leytenant Ole Olufsen boshchiligidagi ikkita ekspeditsiya O‘rta Osiyoning Pomir, Buxoro, Xiva va Marv hududlarini o‘rgangan. Ekspeditsiya ishtirokchilari qirg‘iz, turkman, tojik va o‘zbek xalqlarining etnografik xususiyatlarini, moddiy madaniyatini, sug‘orish dehqonchiligi va hunarmandchiligini o‘rgangan. Daniya milliy muzeyiga to‘plangan

buyumlar va kundaliklar Ester Fihl tomonidan chuqur tahlil qilingan. Fihlning “Markaziy Osiyoni o‘rganish” (2002) nomli ikki jildli asarida ushbu ekspeditsiyalarning ilmiy natijalari umumlashtirilgan.

Rossiyalik elchilar va harbiylar

XVII-XIX asrlarda Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyoga yuborilgan elchilar va harbiy xizmatchilar – Florio Beneveni, Timofey Burnashev, Yegor Meyendorf, Pyotr Demezon, Nikolay Xanikov va boshqalar o‘z hisobotlarida mintaqaning siyosiy tuzumi, iqtisodiy ahvoli, aholining turmush tarzi va mahalliy hukmdorlarning Rossiyaga munosabati haqida batafsil ma’lumotlar qoldirgan.

Vizantiya manbalarining alohida o‘rni

O‘rta Osiyo tarixini yoritishda Vizantiya manbalari ham muhim ahamiyatga ega. Vizantiyalik mualliflar (Menandr, Feofan, Feofilakt Simokatta) asarlarida turkiy qabilalar – hunlar, avarlar, turklar, xazarlar, o‘g‘uzlar, pecheneglar va boshqalarning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida ma’lumotlar uchraydi. Vizantiya elchilari (Zemarx va boshqalar) Turk hoqonligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashrif buyurganligi sababli, ularning yozuvlari ayniqsa ishonchli va qimmatlidir. Vengriyalik olim G. Moravchik XX asrning 50-yillarida Vizantiya manbalaridagi turkiy so‘z va atamalarni to‘plab, maxsus monografiya nashr etgan. Shunday qilib, yevropalik sayyohlar va elchilarning asarlari O‘rta Osiyo tarixi, etnografiyasi, geografiyasi va madaniyatini o‘rganishda asosiy manbalardan biri bo‘lib, ular Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy-siyosiy aloqalarni tushunishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar va ularning tahlili. Daniyalik tadqiqotchilar (Ole Olufsen va Ester Fihl) 1890-yillarda daniyalik leytenant Ole Olufsen boshchiligidagi ikkita ekspeditsiya O‘rta Osiyoning Pomir, Buxoro, Xiva va Marv hududlarini o‘rgangan. Ekspeditsiya ishtirokchilari qirg‘iz, turkman, tojik va o‘zbek xalqlarining etnografik xususiyatlarini, moddiy madaniyatini, sug‘orish dehqonchiligi va hunarmandchiligini o‘rgangan. Daniya milliy muzeyiga to‘plangan buyumlar va kundaliklar Ester Fihl tomonidan chuqur tahlil qilingan. Fihlning “Markaziy Osiyoni o‘rganish” (2002) nomli ikki jildli asarida ushbu ekspeditsiyalarning ilmiy natijalari umumlashtirilgan.

Rossiyalik elchilar va harbiylar

XVII-XIX asrlarda Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyoga yuborilgan elchilar va harbiy xizmatchilar – Florio Beneveni, Timofey Burnashev, Yegor Meyendorf, Pyotr Demezon, Nikolay Xanikov va boshqalar o‘z hisobotlarida mintaqaning siyosiy tuzumi, iqtisodiy ahvoli, aholining turmush tarzi va mahalliy hukmdorlarning Rossiyaga munosabati haqida batafsil ma’lumotlar qoldirgan.

Vizantiya manbalarining alohida o‘rni

O‘rta Osiyo tarixini yoritishda Vizantiya manbalari ham muhim ahamiyatga ega. Vizantiyalik mualliflar (Menandr, Feofan, Feofilakt Simokatta) asarlarida turkiy qabilalar – hunlar, avarlar, turklar, xazarlar, o‘g‘uzlar, pecheneglar va boshqalarning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida ma’lumotlar uchraydi. Vizantiya elchilari (Zemarx va boshqalar) Turk hoqonligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashrif buyurganligi sababli, ularning yozuvlari ayniqsa ishonchli va qimmatlidir. Vengriyalik olim G. Moravchik XX asrning 50-yillarida Vizantiya manbalaridagi turkiy so‘z va atamalarni to‘plab, maxsus monografiya nashr etgan. Shunday qilib, yevropalik sayyohlar va elchilarning asarlari O‘rta Osiyo tarixi, etnografiyasi, geografiyasi va madaniyatini o‘rganishda asosiy manbalardan biri bo‘lib, ular Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy-siyosiy aloqalarni tushunishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muzey so‘zi birinchi marta 1732 yilda paydo bo‘lgan; uning etimologiyasi “Muzalar ibodatxonasi”,yunoncha Mouseion so‘zidan olingan bo‘lib, markazga ishora qilgan. XIX asrda muzey yirik shaxsiy kolleksiyalardan (rasmlar, haykaltaroshlik, san‘at buyumlari va arxeologik artefaktlar) kelib tushgan buyumlarni tartib bilan ko‘rsatish zarurligini moddiylashtirdi. Barcha madaniy sohalarni bosqichma-bosqich qamrab oluvchi ensiklopedik bilimlarni yaratish (tasviriy san‘at,

qadimgi sivilizatsiyalar, etnografiya,tabiatshunoslik va boshqalar) va ushbu bilimlarni bosqichma-bosqich mamlakat ichidagi eng ko‘p odamlarga tarqatish XIX asr Yevropa davlatlari siyosiy evolyutsiyasi konteksti. Virtual muzey an‘anaviylikning uyg‘unlashuvi natijasidir. Multimedia kompyuteri va aloqasi bo‘lgan muzey konsepsiyasi Internet texnologiyasidir. Virtual muzey obyektni moddiysizlantirmoqda. Obyekt haqida ko‘proq ma‘lumot berish uchun: tasvir uning barcha ko‘rinishlarida (2D, 3D, detallar, fizik-kimyoviy tahlillar, faksimillar, va boshqalar) va tasvirni bilish (obyekt bo‘yicha ichki ma‘lumotlar, obyekt konteksti bo‘yicha tashqi ma‘lumotlar, tarixshunoslik ma‘lumotlari, ma‘lumotnoma axboroti va h.k.). U muzeyning o‘zini moddiysizlantiradi “masofadan turib tashrif buyurish”mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Ushbu maqolada sayohatnomalarning tarixiy manba sifatidagi o‘rni, ularning kelib chiqish omillari va yevropalik sayyohlarning O‘rta Osiyo haqidagi yozuvlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi. Tarixshunoslik nuqtai nazaridan, sayohatnomalarni tizimli o‘rganish mintaqalararo aloqalar tarixini, madaniy ta’sir va o‘zaro tafakkurni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu manbalarni arxeologik, numizmatik va boshqa yordamchi tarixiy fanlar bilan qiyosiy tahlil qilish ilmiy jihatdan samarali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тураев Ш.Р. Ўрта аср Европа сайёҳлари асарларида Ўрта Осиё тарихи ва маданиятининг ёритилиши: тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2022. – 145 б.
2. Ester Fihl. Markaziy Osiyoni o‘rganish. I-II jildlar. – Kopengagen: Rodos Forlag, 2002. – 736 b.
3. Плано Карпини. Монголлар тарихи // Ўрта асрлар сайёҳлари асарлари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 45-89.
4. Вильгельм Рубрук. Шарққа саёҳат // Ўрта асрлар географияси. – Москва: Наука, 1997. – 120-145-бетлар.
5. Марко Поло. Дуне мўъжизалари китоби / тарж. А.Умаров. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 320 б.
6. Рой Гонсалес де Клавихо. Самарқандга саёҳат кундалиги / тарж. Х.Каримов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – 156 б.
7. Арминий Вамбери. Ўрта Осиё бўйлаб саёҳат / тарж. С.Камолов. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 288 б.
8. O’rinova Y. T “ Nutq sur’ati , rivojlanishining buzulishlari”, Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал. Nukus-2025, 2/1.
9. O’rinova Y. T. International journal of science 2-son, 2024 № 274079. www.worldlyjournals.com “Nutq nuqsonlariga ega bo’lgan bolalarning kasbiy konpetensiyaviy yondashuvi”